



1-4 SINF ONA TILI DARSLIKLARINI QIYOSIY TANQIDIY TAHLILI

Atamurodova Qunduzoy Abdunabiyeva

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Pedagogika Fakulteti Boshlang'ich ta'lim Kafedrası
o'qtuvchisi qatamurodova@gmail.com*

Zaripova Barchinoy Abdumajit qizi

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Pedagogika Fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-
bosqich 3bt-21gruh talabasi zaripovabarchinoy6@gmail.com Tel: +9988-88-850-99-02*

Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uygun bolsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin
Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaldagi darsliklar hamda hozirda takomillashgan xalqaro reytinglar natijasida tuzilgan, o'quvchilarni yuzaki emas balki haqiqiy savodxonlik, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga chorlovchi dasturlar asosida yaratilgan darsliklar va ularning boshqa chet davlatlar bilan mutanosibligini foizlar kesimida berilgan ma'lumotlar haqida juda ko'plab ma'lumotlar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: amaldagi dastur, darsliklar, xalqaro standartlar, akademik til, matematika, TIMSS, PIRLS, tabiiy fanlar.

So'ngi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha farmon va qarorlar qabul qilindi va bunga asosan deyarli barcha dastur hamda darsliklar asosiga o'zgartirishlar kiritildi. Bunga sabab bo'lgan eng katta omil shunda ediki, bizning milliy o'quv dasturimiz xalqaro talablarga hamda chet elning ko'zga ko'ringan ta'lim jarayonlari natijalariga tenglasha olmasligi edi.

Bu albatta ta'limda oqsoqlik borligini bildiradi. Janubiy Koreuyada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ta'lim berishda zamonaviy raqamli texnologiyalar qo'llaniladi. Bizda ham ta'lim olishda raqamli texnologiyalarini qo'llash borasida qaror va farmonlar amalda qo'llanilmoqda. Bu farmonlarda ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlı raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish.

O'quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishda o'qituvchilar ta'lim berishda raqamli texnologiyalardan maqsadli, samarali foydalanishi, individual yondashishni zaruratini oshirishi va raqamli bilim, ko'nikmalarni amalga oshirish muhim omil hisoblanadi. Keying tadqiqotlar natijalarlarini ko'radigan bo'lsak, Bunda sinflar kesimida ko'rishimiz mumkinki bu dasturlarning qiyosiy tahlilida asosiy muammo talablarning noaniq qo'yilganligi hisoblanadi. Vaholanki noaniqlik fanlarni tushinmaslikka, fikrlar chalk Ta'limdagi islohatlardan so'ng Milliy O'quv Dasturimizni Xalqaro dastur bilan qiyoslanganda dasturda ancha siljish borligini ko'rishimiz mumkin.



Eski dasturlardagi darsliklarni misol tariqasida oladigan bo'lsak, avvalgi darsliklar qiyin akademik tilda yozilgan bo'lib bu o'quvchilarni fandan bezdirish va ularni tushunmaslikka olib kelar edi. Lekin bugungi kunda ta'lim butun dunyo o'rganish natijalariga asoslangan. Ya'ni o'quvchi darslikdagi, dasturdagi biror mavzuni o'rganolmadimi, ya'na o'sha mavzuni o'qiydi. Avvalgiga o'xshab soatlarga bo'lib berilmadi. O'quvchi o'rgansa-o'rganmasa, keyingisiga o'tib ketaverar edi. Natijada bola tushunmagani sayin darsni yomon ko'ra boshlardi. O'z-o'ziga nisbatan bahosi pasayib ketardi. Eng katta muammo ham shunda edi.

Endi faqat yod olishga emas, balki o'quvchilarning ertangi hayotga ham tayyor bo'lishiga turtki berishga qaratilgan. Ya'ni u sinfxonada tanqidiy fikrini bildira olsa, ijodiy fikrlasa, jamoa bo'lib ishlashni o'rgansa, muammoga yechim topolsa, unda to'g'ri qaror qabul qilish, yangi g'oyani ilgari surish, fan nuqtai nazaridan dunyoni o'z ko'zi bilan anglash ko'nikmalari shakllanadi. Muammolarni bartaraf etish yuzasidan so'ngi yillarda barcha dastur va darsliklarga o'zgartirish kiritildi. Bunday darliklardan biri boshlang'ich sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidir. o'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi.

Eng asosan Xalqaro dasturlar PISA, PIRLS, TIMSS, TAILS kabi tadqiqotlar talabiga javob beradigan va ular asosiga qurilgan dastur va darsliklar yaratildi. ashligiga mantiqni o'zgarishiga olib keladi. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1-4- sinf ona tili fanini o'qitishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi: O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish; O'z fikrini o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og'zaki va yozma ifodalay olish; Bir ma'noni turli shakllarda bera olish ko'nikmalarini shakllantirish, so'zlardan o'rinli foydalanish; Dunyoni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shuningdek boshlang'ich sinf ona tili ta'limi o'quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko'zda tutadi. Bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish; Bolalarga atrof- muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish; Nafosat hissini tarbiyalash; Mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish; O'quv mashg'ulotlariga, bilim manbai bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish. Dars jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyat chog'ida ona tilining qonun-qoidalari, ularning o'zaro bog'lanishi, o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi. Muammoli vaziyatning yaratilishi o'quv materialini tushunib o'zlashtirishga istak qo'zg'otadi, fikrlashda faollikni vujudga keltiradi. Chunki bunday vaziyatda faqat o'qituvchi emas, balki o'quvchilar ham bir-birlariga muammoli ko'rinishdagi savollar beradilar. Masalan, "Kelishik qo'shimchalarning turlanishi" mavzusi o'tilayotganda darslikdagi 96-mashq (bu mashqda so'roqlar o'rniga mos otlarni qo'yib, so'z birikmalarini ko'chirish talab qilingan) bajarilgach, o'qituvchi quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qiladi.

Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur ta'lab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilishga ko'maklashish lozim. Mazkur maqsad va vazifalarni to'laqonli bajarish uchun o'qituvchi faqat dars bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Darsdan tashqari paytlarda ham muntazam ish olib borishi yaxshi natija beradi. Tilni



o'rganishga doir kechalar, to'garaklar, maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan qo'shimcha darslar, sinfdagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash kabilardan foydalanish kerak.

O'quvchilarga til ta'limini singdirishda ularning yosh va bilim darajalarini ham hisobga olish zarur. Chunki 2-sinf o'quvchisiga 4-sinf hajmdagi bilimni berilsa o'quvchi buni hazm qila olmaydi, o'zlashtira olmaydi ham. Aksincha 4-sinf o'quvchisiga 1-2-sinfdagi bilimlar berish bilan cheklanib qolinsa bu ham o'quvchi uchun zerikarli bo'ladi. Natijada o'quvchilarda tilni o'rganishga bo'lgan havas, qiziqish rivojlanish o'rniga susayadi. Ta'lim jarayonida yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish mezonini didaktikaning muhim printsiplaridan hisoblanadi. Bu esa biz nazarda tutayotgan IV sinf o'quvchilarining "Ona tili" fanidagi o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilib o'qishiga katta ta'sir ko'rsatishiga samarali yordam beradi.

Ma'lumki, IV sinfdagi o'quvchilar tevarak-atrofdagi predmetlarni o'rganishda, ular orasidagi munosabat haqidagi ma'lum darajada tasavvur va bilimga ega bo'ladilar, natijada ular o'zlarining histuygularini so'zi orqali ifodalaydilar. O'quvchilarda og'zaki va yozma nutq malakasi shakllanib, boshlang'ich darajadagi abstrakt (noma'lum) xarakterdagi fikriy tahlil va xulosalash formalari tobora o'sib boradi. Bu sinf o'quvchilari har bir qoidaning "O'zbek tili"ning qaysi qismiga mansubligini, uning boshqa bir mavzu bilan o'xshash va farqli tomonlari bor yoki yo'qligini tasdiqlash yo'libilangina ayta oladilar. Ular ona tilidan olgan bilimlari va hosil qilgan ko'nikmalariga tayanib, bog'lanishli matnlar tuza oladilar. "Ona tili" fanini tashkil etishda boshlang'ich sinf o'quvchisining eng asosiy vazifalaridan biri – o'quvchini bajarayotgan ishga, mashq-topshiriqqa nisbatan zavqlantira olishdir. Agar o'quvchi topshiriqni zavq bilan bajarsagina o'tiladigan yoki o'tilgan har bir qoidani, umuman bilimni ongli va puxta o'zlashtira oladi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha ishlarni ularning mohiyati va mazmuniga ko'ra mustaqilish deb bo'lmaydi. Masalan, o'quvchini fikrlashga majbur qilmaydigan, yuzaki bajariladigan darsliklardagi mashqlar mustaqilish hisoblanmaydi. Bu holat hammaga ma'lum, albatta. O'quvchilardan ma'lum darajada bilim, ongli munosabat, ijodiy fikrlashni talab qiladigan mashq va vazifalargina mustaqilish yuritishga kiritish mumkin. Har qanday mustaqilish o'quvchi oldiga muayyan darajadagi masalani hal qilish va unga nisbatan o'z fikrini bildirish vazifasini qo'yimg'i lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi DTS larida berilgan me'yoriy majburiy ta'lablarni bilishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev. O'quvchilarning raqamli dunyoda o'rganish konsepsiyasi bo'yicha savodxonligini rivojlantirish. Scientific Progress. Volume 2. ISSUE 8 I 2021.

2. K. T. Suyarov, Z. Y. Tillayeva, Z. B. Sangirova, M. K. Yuldasheva, M. M. Avezov, M. X. Baymuratova, D. S. Azamatova, M. T. Umaraliyeva, U. E. Alimuhamedova, S. G'. Xasanova, D. T. Hasanova, D. Q. Turdiyeva, N. V. Yusupova, G. A. Pahramova, Sh. M.



Ganiyeva. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Toshkent 2021.

3. Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev, Odina Davronbek Qizi Pozilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda pirls tadqiqotining ahamiyati. . Scientific Progress. Volume 3 . ISSUE 3 I 2022.ISSN:2181-1601. P.140.

4. K.Qosimova. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish.—T.1964
5.1-sinf ona tili darslik 2023.Toshkent,

Kuranov Saydullo Dilmuratovich 2-sinf ona tili darslik 2023-y. Toshkent

Baynazarova Dilnoza Jamoliddinova. 3-sinf Ona tili darslik 2023-y Toshkent.

D.D.Baynazarova, Toirova M.E, 4-sinf ona tili darslik 2023-y Toshkent.